**NAVOIY VILOYATI QIZILTEPA TUMANI HOKIMINING**

# QARORI

2024-yil 25-noyabr 333-5-72-Q/24 Qiziltepa tumani hokimligi

**Ijtimoiy muhofazaga muhtoj va ish topishda qiynalayotgan shaxslarni ishga joylashtirish uchun ish oʻrinlarini 2025-yil uchun band qilib qoʻyish toʻgʻrisida**

Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 5-dekabrdagi "Ijtimoiy muhofazaga muhtoj, ish topishda qiynalayotgan va mehnat bozorida teng shartlarda raqobatlasha olmaydigan shaxslarni ishga joylashtirish uchun ish oʻrinlarining eng kam sonini belgilash va zahiraga qoʻyish tartibini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari toʻgʻrisida"gi 965-sonli hamda Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 21-dekabrdagi "Nogironligi boʻlgan shaxslarni har tomonlama qoʻllab-quvvatlash, ularning bandligiga koʻmaklashish hamda ijtimoiy faolligini yanada oshirishga oid qoʻshimcha chora-tadbirlar toʻgʻrisida"gi PQ-57 sonli Qaroriga Oʻzbekiston Respublikasi "Aholi bandligi toʻgʻrisida"gi 642-sonli qonunga muvofiq, ish oʻrinlarini band qilib qoʻyish maqsadida:

**QAROR QILAMAN:**

**1.** Oʻzbekiston Respublikasi "Aholi bandligi toʻgʻrisida"gi Qonunining 10-moddasi 2-bandi 4-xatboshisi, 23-moddasi, 39-moddasi hamda 40-moddalariga asosan, ijtimoiy muhofazaga muhtoj va ish topishda qiynalayotgan shaxslarni ishga joylashtirish uchun xodimlarning oʻrtacha soni 20 nafardan koʻpni tashkil etadigan korxona, tashkilot va muassasalarda 2025-yil uchun 12 foizgacha miqdorida jami 145 ta (12 %) kvota ish oʻrinlari, jumladan:

oʻn toʻrt yoshgacha va nogiron bolalari boʻlgan yolgʻiz va koʻp bolali ota-onalar uchun 9 foiz (13 kishi);

umumiy oʻrta va oʻrta maxsus, kasb-hunar taʻlimi muassasalarini tamomlagan yoshlar, shuningdek, oliy taʻlim muassasalarining davlat grantlari boʻyicha ta'lim olgan bitiruvchilari uchun 79,3 foiz (115 kishi);

safarbarlik chaqiruvi zahirasida xizmatni o‘tagan va O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari saflaridan muddatli harbiy xizmatdan bo‘shatilgan shaxslar uchun 1,4 foiz (2 kishi);

nogironlar uchun 6,2 foiz (9 kishi);

pensiya oldi yoshdagi shaxslar uchun 1,3 foiz (2 kishi);

Odam savdosi qurbonlari 0,6 foiz (1 kishi);

Oilaviy va maishiy zo‘ravonlik bo’yicha jabrlanganlar 2,1 foiz (3 kishi).

**2.** Korxona, tashkilot va muassasalarning rahbarlariga: Ijtimoiy muhofazaga muhtoj shaxslar uchun ish joylarining ko‘rsatib o‘tilgan miqdorini Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 5-dekabrdagi 965-sonli qarori bilan tasdiqlangan “Ijtimoiy muhofazaga muhtoj va ish topishdaqiynalayotgan shaxslarni ishga joylashtirish uchun ish o‘rinlarini band qilib qo‘yish tartibi to‘g‘risida”gi Nizom hamda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 21-dekabrdagi “Nogironligi bo‘lgan shaxslarni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash, ularning bandligiga ko‘maklashish hamda ijtimoiy faolligini yanada oshirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-57 sonli Qaroriga muvofiq, belgilangan muddatlarda va tartibda yaratilishini (ajratilishini yoki band etib qo‘yilishini) ta’minlash va zahira ish o‘rinlarini “Yagona milliy mehnat tizimi” (YaMMT) dasturida aks ettirish;

ish joylari sanitariya gigiyena normalariga va xodim o‘z mehnat majburiyatlarini bemalol bajarishini ta’minlaydigan mehnat sharoitlariga muvofiq bo‘lishini ta’minlash; ijtimoiy muhofazaga muhtoj ish topishda qiynalayotgan va nogironligi bo‘lgan shaxslarni ish bilan ta‘minlash uchun 2024-yil yakunlanishidan 10 kun oldin kvota ish joylari umumiy miqdorining kamida 25 foizi uchun, 2025- yilning 10-aprelidan kechikmay ish joylarining qolgan qismi 75 foizini barpo etish (ajratish yoki band qilib qo‘yish) to‘g‘risidagi, ya‘ni har bir kvota toifasi bo‘yicha ish o‘rinlari band qilib qo‘yiladigan kasblar va lavozimlar, mutaxassisliklar kesimidagi ma‘lumotlarni va buyruq nusxalarini Qiziltepa tuman Kambag‘allikni qisqartirish va bandlikka ko‘maklashish bo‘limiga taqdim etish topshirilsin.

**3.** O‘zbekiston Respublikasining “Aholi bandligi to‘g‘risida”gi Qonunning 41-moddasiga asosan ijtimoiy himoyaga muhtoj shaxslarga eng kam miqdordagi ish joylarini yaratish yuzasidan qabul qilingan mazkur qarorni bajarmaganlik uchun ish beruvchilar qonunchilikda belgilangan tartibda javobgarlikka tortiladi.

**4.** O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 5-dekabrdagi 965-sonli Qarori bilan tasdiqlangan “Ijtimoiy muhofazaga muhtoj, ish topishda qiynalayotgan va mehnat bozorida teng shartlarda raqobatlasha olmaydigan shaxslarni ishga joylashtirish uchun ish o‘rinlarining eng kam sonini belgilash va zahiraga qo‘yishtartibi to‘g‘risida”gi Nizomning 21-bandi, 2-qismiga asosan, mahalliy davlat hokimiyati organining ijtimoiy muhofazaga muhtoj va ish qidirishda qiynalayotgan va nogironligi bo‘lgan shaxslar uchun ish o‘rinlarini band qilib qo‘yish bo‘yicha qarorini bajarmaganlik uchun jarimani to‘lash tashkilotning zahiraga qo‘yiladigan ish o‘rinlarining belgilangan sonini yaratish bo‘yicha majburiyatdan ozod qilmaydi.

**5.** Ijtimoiy muhofazaga muhtoj ish qidirishda qiynalayotgan va nogironligi bo‘lgan shaxslar uchun band qilib qo‘yiladigan ish o‘rinlarini tuman hokimi tomonidan belgilangan miqdordan ortiqcha tashkil etgan tashkilotlar, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 5- dekabrdagi 965-sonli Qarori bilan tasdiqlangan “Ijtimoiy muhofazaga muhtoj, ish topishda qiynalayotgan va mehnat bozorida teng shartlarda raqobatlasha olmaydigan shaxslarni ishga joylashtirish uchun ish o‘rinlarining eng kam sonini belgilash va zahiraga qo‘yish tartibi to‘g‘risida”gi Nizom hamda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 21-dekabrdagi “Nogironligi bo‘lgan shaxslarni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash, ularning bandligiga ko‘maklashish hamda ijtimoiy faolligini yanada oshirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-57-sonli Qaroriga asosan, ushbu ish o‘rinlaridan ortiq tashkil etishga sarflangan mablag‘larning bir qismini Qiziltepa tuman Kambag‘allikni qisqartirish va bandlikka ko‘maklashish bo‘limi bilan tuzilgan shartnoma asosida Bandlik jamg‘armasi mablag‘lari hisobidan qoplash huquqiga ega ekanliklari inobatga olinsin.

**6.** Tashkilotlar har oyda, hisobot oyidan keyingi oyning 5-kunigacha, tuman Kambag‘allikni qisqartirish va bandlikka ko‘maklashish bo‘limiga Nizomga muvofiq shakl bo‘yicha muhtojlarni ishga joylashtirish to‘g‘risida axborot taqdim etadi.

**7.** Kambag‘allikni qisqartirish va bandlikka ko‘maklashish bo‘limi besh kun muddatda ushbu qarorning ilovasida ko‘rsatilgan tashkilotlar rahbarlarining e’tiboriga yetkazsin va ushbu qaror bajarilishi ustidan nazoratni ta’minlasin.

**8.** Muhtojlar uchun ish o‘rinlarining eng kam sonini belgilash bo‘yicha tuman hokimining ushbu qarori bajarilmaganda, shuningdek, ularni ishga qabul qilish asossiz ravishda rad etilganligi uchun tashkilotlarning mansabdor shaxslariga qonun hujjatlarida belgilangan tartibda ma’muriy javobgarlikka tortish ta’minlansin.

**9.** Qiziltepa tuman Kambag‘allikni qisqartirish va bandlikka ko‘maklashish bo‘limi ijtimoiy muhofazaga muhtojva ish topishda qiynalayotgan shaxslar uchun band qilib qo‘yiladigan ish o‘rinlari sonidan ortiq ishga qabul qilgan tashkilotlarga subsidiyalar ajratilishi ta’minlansin.

**10.** Ushbu qarorning rasmiy nashrda e‘lon qilinishi hamda tuman hokimligining rasmiy veb-saytida joylashtirilishini ta’minlash tuman hokimligi axborot xizmati rahbari A.Umedov zimmasiga yuklansin.

**11.** Ushbu qaror rasmiy e’lon qilingan kundan e’tiboran kuchga kiradi.

**12.** Ushbu qaror ijrosini nazorat qilish, tuman hokimining birinchi o‘rinbosari N.Hayitov zimmasiga yuklansin.

**Tuman hokimi** **B.Bobomurodov**

Qiziltepa tuman hokimining
2024-yil 25-noyabrdagi
333-5-72-Q/24-son qaroriga
1-ilova

## Qiziltepa tumanida 2025-yil davomida, ijtimoiy muhofazaga muhtoj va ish topishda qiynalayotgan shaxslarni ishga joylashtirish uchun band qilib qo‘yilgan ish o‘rinlariga ishga joylashtirish bo‘yicha

## MANZILLI JADVAL

| T/r | Korxona, tashkilot, muassasalar nomi | Xodimlarning ro‘yxatdagi o‘rtacha soni | Ijtimoiy muhofazaga muhtoj va ish topishda qiynalayotgan shaxslarni ishga joylashtirish uchun ish o‘rinlarini eng kam soni | shu jumladan: | | | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|
| | | | | O‘n to‘rt yoshgacha va nogiron bolalari bo‘lgan yolg‘iz va ko‘p bolali ota-onalar | Umumiy o‘rta va o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi muassasalarini tamomlagan yoshlar, shuningdek, oliy ta’lim muassasalarining davlat grantlari bo‘yicha ta’lim olgan bitiruvchilari | Muddatli harbiy xizmatdan bo‘shatilganlar va safarbarlik chaqiruvi zahirasiga kiritilgan shaxslar | Nogironligi bo‘lgan shaxslar | Pensiya-oldi yoshdagi shaxslar | Jazoni ijro etish muassasalaridan ozod qilingan yoki sudning qaroriga ko‘ ra tibbiy tusdagi majburlov choralari qo‘llanilishidan ozod qilingan shaxslar | Odam savdosi qurbonlari | Oilaviy (maishiy) zo‘ravonlik natijasida jabrlangan lar |
| 1 | **Navoiy KLASTER Ko‘priklardan Foydalanish unitar korxonasi** | **355** | **8** | **0** | **6** | **2** | **0** | **0** | **0** | **0** | **0** |
| 2 | **Qiziltepa TYFUK** | **133** | **4** | **2** | **2** | **0** | | **0** | **0** | **0** | **0** |
| 3 | **Obodonlashtirish boshqarmasi** | **262** | **3** | **1** | **1** | **0** | **1** | **0** | **0** | **0** | **0** |
| 4 | **Qiziltepa tuman tibbiyot birlashmasi** | **2533** | **16** | **3** | **10** | **0** | **3** | **0** | **0** | **0** | **0** |
| 5 | **Qiziltepa tuman SEO va JS bo‘limi** | **72** | **4** | **1** | **2** | **0** | **1** | **0** | **0** | **0** | **0** |

| | | | | | | | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|
| 6 | **Qiziltepa tuman ABMK boshqarmasi** | **362** | **10** | **1** | **8** | **0** | **0** | **0** | **0** | **0** | **1** |
| 7 | **Toshrabot - O‘rtacho‘l ITB** | **82** | **3** | **0** | **2** | **0** | **0** | **0** | | **0** | **1** |
| 8 | **"Suv yetkazib berish xizmati" davlat muassasasi** | **21** | **1** | | **1** | | | | | | **0** |
| 9 | **2-sonli kasb-hunar maktabi** | **61** | **2** | **1** | **1** | **0** | **0** | **0** | **0** | **0** | **0** |
| 10 | **Bolalar va O‘smirlar spot maktabi** | **105** | **2** | **0** | **2** | **0** | **0** | **0** | **0** | **0** | **0** |
| 11 | **36-Jismoniy va ruhiy rivojlanishida nuqsoni bo‘lgan bolalar uchun ixtisoslashgan maktab internati** | **243** | **1** | **0** | **1** | **0** | **0** | **0** | **0** | **0** | **0** |
| 12 | **13-son bolalar musiqa va san‘at maktabi** | **40** | **1** | **0** | **0** | **0** | **0** | **1** | **0** | **0** | **0** |
| 13 | **1-sonli maktabgacha ta’lim muassasasi** | **54** | **1** | **0** | **1** | **0** | **0** | **0** | **0** | **0** | **0** |
| 14 | **2-sonli maktabgacha ta’lim muassasasi** | **35** | **1** | **0** | **1** | **0** | **0** | **0** | **0** | **0** | **0** |
| 15 | **3-sonli maktabgacha ta’lim muassasasi** | **37** | **1** | **0** | **1** | **0** | **0** | **0** | **0** | **0** | **0** |
| 16 | **4-sonli maktabgacha ta’lim muassasasi** | **59** | **1** | **0** | **1** | **0** | **0** | **0** | **0** | **0** | **0** |
| 17 | **5-sonli** | **46** | **1** | **0** | **1** | **0** | **0** | **0** | **0** | **0** | **0** |

| | | | | | | | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|
| | **maktabgacha ta’lim muassasasi** | | | | | | | | | | |
| 18 | **6-sonli maktabgacha ta’lim muassasasi** | **25** | **1** | **0** | **1** | **0** | **0** | **0** | **0** | **0** | **0** |
| 19 | **7-sonli maktabgacha ta’lim muassasasi** | **47** | **1** | **0** | **1** | **0** | **0** | **0** | **0** | **0** | **0** |
| 20 | **8-sonli maktabgacha ta’lim muassasasi** | **48** | **1** | **0** | **0** | **0** | **1** | **0** | **0** | **0** | **0** |
| 21 | **9-sonli maktabgacha ta’lim muassasasi** | **27** | **1** | **0** | **1** | **0** | **0** | **0** | **0** | **0** | **0** |
| 22 | **10-sonli maktabgacha ta’lim muassasasi** | **34** | **1** | **0** | **1** | **0** | **0** | **0** | **0** | **0** | **0** |
| 23 | **11-sonli maktabgacha ta’lim muassasasi** | **30** | **2** | **0** | **2** | **0** | **0** | **0** | **0** | **0** | **0** |
| 24 | **12-sonli maktabgacha ta’lim muassasasi** | **42** | **1** | **0** | **1** | **0** | **0** | **0** | **0** | **0** | **0** |
| 25 | **13-sonli maktabgacha ta’lim muassasasi** | **46** | **1** | **0** | **1** | **0** | **0** | **0** | **0** | **0** | **0** |
| 26 | **14-sonli maktabgacha ta’lim muassasasi** | **42** | **1** | **0** | **1** | **0** | **0** | **0** | **0** | **0** | **0** |
| 27 | **15-sonli maktabgacha ta’lim muassasasi** | **30** | **1** | **0** | **1** | **0** | **0** | **0** | **0** | **0** | **0** |
| 28 | **16-sonli maktabgacha ta’lim muassasasi** | **39** | **2** | **0** | **2** | **0** | **0** | **0** | **0** | **0** | **0** |
| 29 | **19-sonli maktabgacha** | **42** | **2** | **0** | **2** | **0** | **0** | **0** | **0** | **0** | **0** |

| | | | | | | | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|
| | **ta’lim muassasasi** | | | | | | | | | | |
| 30 | **20-sonli maktabgacha ta’lim muassasasi** | **37** | **1** | **0** | **1** | **0** | **0** | **0** | **0** | **0** | **0** |
| 31 | **22-sonli maktabgacha ta’lim muassasasi** | **32** | **1** | **0** | **0** | **0** | **1** | **0** | **0** | **0** | **0** |
| 32 | **Tuman Barkamol avlod bolalar maktabi** | **59** | **2** | **0** | **0** | **0** | **0** | **0** | **0** | **1** | **1** |
| 33 | **27-sonli maktabgacha ta’lim muassasasi** | **26** | **1** | **0** | **1** | **0** | **0** | **0** | **0** | **0** | **0** |
| 34 | **30-sonli maktabgacha ta’lim muassasasi** | **38** | **1** | **0** | **1** | **0** | **0** | **0** | **0** | **0** | **0** |
| 35 | **31-sonli maktabgacha ta’lim muassasasi** | **38** | **1** | **0** | **1** | **0** | **0** | **0** | **0** | **0** | **0** |
| 36 | **32-sonli maktabgacha ta’lim muassasasi** | **46** | **1** | **0** | **1** | **0** | **0** | **0** | **0** | **0** | **0** |
| 37 | **35-sonli maktabgacha ta’lim muassasasi** | **41** | **1** | **0** | **1** | **0** | **0** | **0** | **0** | **0** | **0** |
| 38 | **36-sonli maktabgacha ta’lim muassasasi** | **47** | **1** | **0** | **1** | **0** | **0** | **0** | **0** | **0** | **0** |
| 39 | **37-sonli maktabgacha ta’lim muassasasi** | **39** | **1** | **0** | **1** | **0** | **0** | **0** | **0** | **0** | **0** |
| 40 | **1-umumiy o‘rta ta’lim maktabi** | **165** | **2** | **0** | **2** | **0** | **0** | **0** | **0** | **0** | **0** |
| 41 | **2-umumiy o‘rta ta’lim maktabi** | **62** | **1** | **0** | **1** | **0** | **0** | **0** | **0** | **0** | **0** |

| | | | | | | | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|
| 42 | **3-umumiy o‘rta ta’lim maktabi** | **86** | **1** | **0** | **1** | **0** | **0** | **0** | **0** | **0** | **0** |
| 43 | **4-umumiy o‘rta ta’lim maktabi** | **89** | **1** | **0** | **1** | **0** | **0** | **0** | **0** | **0** | **0** |
| 44 | **5-umumiy o‘rta ta’lim maktabi** | **178** | **2** | **0** | **2** | **0** | **0** | **0** | **0** | **0** | **0** |
| 45 | **6-umumiy o‘rta ta’lim maktabi** | **71** | **1** | **0** | **1** | **0** | **0** | **0** | **0** | **0** | **0** |
| 46 | **7-umumiy o’rta ta’lim maktabi** | **81** | **1** | **0** | **1** | **0** | **0** | **0** | **0** | **0** | **0** |
| 47 | **8-umumiy o‘rta ta’lim maktabi** | **67** | **2** | **0** | **2** | **0** | **0** | **0** | **0** | **0** | **0** |
| 48 | **9-umumiy o‘rta ta’lim maktabi** | **81** | **1** | **0** | **1** | **0** | **0** | **0** | **0** | **0** | **0** |
| 49 | **10-umumiy o‘rta ta’lim maktabi** | **55** | **1** | **0** | **1** | **0** | **0** | **0** | **0** | **0** | **0** |
| 50 | **11-umumiy o‘rta ta’lim maktabi** | **64** | **1** | **0** | **1** | **0** | **0** | **0** | **0** | **0** | **0** |
| 51 | **12-umumiy o‘rta ta’lim maktabi** | **144** | **2** | **0** | **2** | **0** | **0** | **0** | **0** | **0** | **0** |
| 52 | **13-umumiy o‘rta ta’lim maktabi** | **115** | **2** | **0** | **2** | **0** | **0** | **0** | **0** | **0** | **0** |
| 53 | **14-umumiy o‘rta ta’lim maktabi** | **62** | **2** | **0** | **2** | **0** | **0** | **0** | **0** | **0** | **0** |
| 54 | **15-umumiy o’rta ta’lim maktabi** | **171** | **1** | **0** | **1** | **0** | **0** | **0** | **0** | **0** | **0** |
| 55 | **16-umumiy o‘rta ta’lim maktabi** | **54** | **2** | **1** | **1** | **0** | **0** | **0** | **0** | **0** | **0** |
| 56 | **17-umumiy o‘rta ta’lim maktabi** | **70** | **1** | **0** | **1** | **0** | **0** | **0** | **0** | **0** | **0** |
| 57 | **18-umumiy o‘rta ta’lim maktabi** | **97** | **2** | **0** | **2** | **0** | **0** | **0** | **0** | **0** | **0** |
| 58 | **19-umumiy o‘rta ta’lim maktabi** | **117** | **2** | **0** | **2** | **0** | **0** | **0** | **0** | **0** | **0** |

| | | | | | | | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|
| 59 | **20-umumiy o'rta ta'lim maktabi** | **91** | **2** | **0** | **2** | **0** | **0** | **0** | **0** | **0** | **0** |
| 60 | **21-umumiy o'rta ta'lim maktabi** | **90** | **2** | **0** | **2** | **0** | **0** | **0** | **0** | **0** | **0** |
| 61 | **22-umumiy o'rta ta'lim maktabi** | **64** | **1** | **0** | **1** | **0** | **0** | **0** | **0** | **0** | **0** |
| 62 | **23-umumiy o'rta ta'lim maktabi** | **77** | **1** | **0** | **1** | **0** | **0** | **0** | **0** | **0** | **0** |
| 63 | **24-umumiy o'rta ta'lim maktabi** | **33** | **2** | **0** | **1** | **0** | **1** | **0** | **0** | **0** | **0** |
| 64 | **25-umumiy o'rta ta'lim maktabi** | **78** | **1** | **0** | **1** | **0** | **0** | **0** | **0** | **0** | **0** |
| 65 | **26-umumiy o'rta ta'lim maktabi** | **104** | **2** | **0** | **1** | **0** | **0** | **1** | **0** | **0** | **0** |
| 66 | **27-umumiy o'rta ta'lim maktabi** | **146** | **2** | **0** | **1** | **0** | **1** | **0** | **0** | **0** | **0** |
| 67 | **28-umumiy o'rta ta'lim maktabi** | **78** | **2** | **1** | **1** | **0** | **0** | **0** | **0** | **0** | **0** |
| 68 | **29-umumiy o'rta ta'lim maktabi** | **84** | **1** | **0** | **1** | **0** | **0** | **0** | **0** | **0** | **0** |
| 69 | **30-umumiy o'rta ta'lim maktabi** | **63** | **1** | **0** | **1** | **0** | **0** | **0** | **0** | **0** | **0** |
| 70 | **31-umumiy o'rta ta'lim maktabi** | **81** | **1** | **0** | **1** | **0** | **0** | **0** | **0** | **0** | **0** |
| 71 | **32-umumiy o'rta ta'lim maktabi** | **41** | **1** | **0** | **1** | **0** | **0** | **0** | **0** | **0** | **0** |
| 72 | **33-umumiy o'rta ta'lim maktabi** | **89** | **4** | **2** | **2** | **0** | **0** | **0** | **0** | **0** | **0** |
| 73 | **34-umumiy o'rta ta'lim maktabi** | **25** | **1** | **0** | **1** | **0** | **0** | **0** | **0** | **0** | **0** |
| 74 | **35-umumiy o'rta ta'lim maktabi** | **45** | **1** | **0** | **1** | **0** | **0** | **0** | **0** | **0** | **0** |

| | | | | | | | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|
| 75 | **36-umumiy o‘rta ta’lim maktabi** | **35** | **1** | **0** | **1** | **0** | **0** | **0** | **0** | **0** | **0** |
| 76 | **37-umumiy o‘rta ta’lim maktabi** | **70** | **1** | **0** | **1** | **0** | **0** | **0** | **0** | **0** | **0** |
| 77 | **38-umumiy o‘rta ta’lim maktabi** | **63** | **1** | **0** | **1** | **0** | **0** | **0** | **0** | **0** | **0** |
| 78 | **41-umumiy o‘rta ta’lim maktabi** | **87** | **1** | **0** | **1** | **0** | **0** | **0** | **0** | **0** | **0** |
| 79 | **42-umumiy o‘rta ta’lim maktabi** | **80** | **1** | **0** | **1** | **0** | **0** | **0** | **0** | **0** | **0** |
| 80 | **43-umumiy o‘rta ta’lim maktabi** | **60** | **1** | **0** | **1** | **0** | **0** | **0** | **0** | **0** | **0** |
| **Jami:** | | **8768** | **145** | **13** | **115** | **2** | **9** | **2** | **0** | **1** | **3** |